

«10» 03 2022 yil

10134 sonli ShARTNOMA

Quva tumani.

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma Nizom asosida ish yurituvchi «Vodiy savdogar parvozi» (keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan raxbar Sh.Abdurazzaqov birinchi tomon va ikkinchi tomon - O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi xamda uz Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Quva tuman obodonlashtirish boshqarmasi nomidan tashkilot rahbari N.Abdullaev(kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) o'rtalarida ushbu shartnoma quyidagi maqsadlarda tuzildi.

1.Shartnoma predmeti

1.1.«Pudratchi» «Buyurtmachi» o'rtasida kuyidagi ishlar va xizmatlar amalga oshiriladi:
«Pudratchi» quyidagi xizmatlarni bajarib berishni o'z zimmasiga oladi.

№	Xizmat nomi	O'lchov birligi	Miqdori	narxi	Jami summasi
1	Quva tumani Kandabuloq va Akbarobod mfy xududlarida joriy ta'mirlash ishlarini olib borish	xizmat	1	244750000	244750000
	Jami				244750000

1.2.«Pudratchi» tomonidan amalga oshiriladigan va ushbu shartnomada ko'rsatilgan joriy ta'mirlash va ishlarini umumiy qiymati 244750000(ikki yuz qirq to'rt million yetti yuz ellik ming)so'mni tashkil qiladi

2. Xisob-kitob shartlari

2.1. Joriy ta'mirlash ishlarini proekt smeta asosida xisob-kitob kilinadi.

2.2.Shartnomaning umumiy qiymatining 30% miqdorida avans tariqasida oldindan to'lov amalga oshiriladi.

2.3. «Pudratchi» joriy ta'mirlash ishlarini to'liq bajargandan so'ng, o'zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlar qiymati uchun «Buyurtmachi» 60 (oltmish) kun ichida pul o'tkazish yuli bilan to'lovni amalga oshiradi.

3. Tomonlarning xuquq va majburiyatlari

3.1.«Buyurtmachi» «Pudratchi» tomonidan joriy ta'mirlash ishlarini bajarilganligi haqidagi F-3 ma'lumotnomasi hamda F-2 dalolatnomasi yoki taqdim kilingan xisob-varaq fakturasini 72 soat davomida ko'rib chiqib tasdiqlab beradi. Shu davr ichida barcha e'tirozlar bo'lsa «Buyurtmachi» tomonidan yozma ravishda bildirilishi shart. Agar shu davr ichida e'tirozlar bildirilsa 10 kunlik muddat ichida «Pudratchi» tomonidan e'tirozlar asoslantirilgan xolda bartaraf etiladi.

3.2.«Buyurtmachi» shartnomada ko'rsatilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarini sifati talabga javob bergan xolatdagina uni qabul qilib oladi va shartnomada ko'rsatilgan tartibda hisob-kitob ishlari olib borilib, to'lovni amalga oshiradi.

4. Taraflarning javobgarligi.

4.1.Tomonlar tarafidan shartnoma shartlari buzilgan xollarda, javobgarlik O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik kodeksi"ga, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi xamda O'zbekiston Respublikasining boshqa amaldagi qonun xujjatlariga, shuningdek ushbu shartnomaga muvofiq belgilanadi.

4.2. Agar «Pudratchi» tomonidan «Buyurtmachi»ga belgilangan ishlar va xizmatlarni belgilangan muddatlarda bajarib berilmasa, «Pudratchi» muddatdan o'tgan ishlar va xizmatlarini umumiy qiymatini 0.5% xar bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga jarima to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50 foizidan oshib ketmasligi kerak.

Agar majburiyatlarning bajarilmasligi fors-major xolatlarining oqibati xisoblansa, "Pudratchi" penya tulash majburiyatidan xalos qilinadi.

4.3. «Buyurtmachi» «Pudratchi»ga bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun uz vaqtida to'lovni amalga oshirmasa ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarini 0.4 foizi miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun jarima to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi to'lov amalga oshirilmagan summaning 50 foizidan oshib ketmasligi kerak.

Agar majburiyatlarning bajarilmasligi fors-major xolatlarining oqibati xisoblansa, "Buyurtmachi" penya tulash majburiyatidan xalos qilinadi.

4.4. Jarimalar to'lanishi «Pudratchi»ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

5. Nizolarni xal etish tartibi.

5.1 .Shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar bo'yicha tomonlar kelishish choralarini ko'radilar.
5.2.Tomonlar kelisha olmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan Iqtisodiy sudlari orqali hal qilinadi.

6. Fors-major xolatlari.

6.1.Shartnoma tuzilgandan so'ng bartaraf etilishi tomonlarning ta'siri va istaklariga bog'liq bo'lmagan vaqtincha yoki uzoq vaqt shartnomani zarur darajada amalga oshirishda halaqit beradigan vaziyatlar sodir bo'lganda, ya'ni tabiiy ofatlar, noqulay ob-xavo sharoiti, hukumat tadbirlari, hokimiyat organlarining qarorlari, harbiy nizolar, ichki tartibsizliklar va boshqa hollarda, yuqorida aytib o'tilgan holatlar mavjudligi tufayli tomonlar tarafidan shartnoma majburiyatlari buzilgan deb hisoblanmaydi va shartnoma majburiyatlarini bajarish muddatlari ushbu holatlar davom etish vaqtiga suriladi.

6.2. Shartnoma majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan tomon darhol ikkinchi tomonni yuqoridagi holatlarning yuzaga kelganligi, shuningdek bartaraf etilganligi to'g'risida xabardor qilishi kerak.

6.3. Bartaraf etilishi mumkin bo'lmagan vaziyatlar sodir bulgani yoki ularni bartaraf etilgani haqida uz vaqtida, 15 kundan ko'p bo'lmagan muddatda xabar bermagan tomon keyinchalik shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda, bu vaziyatlarni sabab qilib ko'rsata olmaydi.

7. Shartnoma muddati

7.1.Shartnoma ikkala tomonlar imzolangan va tegishli g'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng kuchga kiradi.

7.2. Shartnomaning amal kilish muddati 2022 yil 31 dekabrgacha.




8. Qo'shimcha shartlar

8.1. Shartnoma ikki nusxada tuzilib, xar bir nusxasi teng yuridik kuchga ega bo'lib tomonlarda bir nusxadan saqlanadi.

8.2.Shartnomaga barcha o'zgartirishlar ikkala tomonlama kelishilgan va shartnomaga qo'shimcha bitim imzolangan xolda qonuniy deb hisoblanadi.

8.3. Shartnoma tuman yuridik xizmat korsatish markazi tomonidan ijobiy hulosa olinib, tuman g'aznachilik bo'limi ro'yxatga olgandan so'ng to'liq kuchga ega deb xisoblanadi.

9.Tomonlar huquqiy manzili va bank rekvizitlari

<p>«Vodiy savogar Parvozi» mchj Quva tumani Qayqubbo ko'chasi XR:20208000900468210001 Ipotekabank Farg'ona MFO:00544 STIR:303339057</p> <p>Raxbar:  SH.Abdurazzaqov</p> 	<p>Quva tuman obodonlashtirish boshqarmasi Quva tumani Qayqubbod ko'chasi STIR:206041042 ShXR: 100022860302187065200110003 Moliya Vazirligi G'aznachiligi Xr:23402000300100001010 Moliya Vazirligi g'aznachiligi Xr:23402000300100001010 Markaziybank Toshkent sh BB XKKM MFO:00014 STIR:201122919</p> <p>Raxbar:  N.Abdullaev</p>
--	---

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

VP2543246828

1. Loyihaning turi: Shartnoma

2. Loyihaning nomi: "Pudrat shartnomasi."

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Quva tumani Obodonlashtirish boshqarmasi va "Vodiy savdogar parvozi" MCHJ tomonidan ishlab chiqilgan 09-mart sanasida dasturga kiritilgan.

4. Loyiha bo'yicha taklif:

Loyiha:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga;
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy-protsessual kodeksiga;
3. O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 24-32-moddalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Quva tuman yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti:



N.A.Lutfullayeva

10.03.2022